



ARTICLE INFO

Received: 04th December 2022

Accepted: 14th December 2022

Online: 15th December 2022

KEY WORDS

Oziq-ovqat xavfsizligi, oziq-ovqat mahsulotlari bozori, bozor sub'ektlari va ob'ektlari, oziq-ovqat mahsuloti, qishloq xo'jaligi tarmog'i.

Yer yuzi aholisining tez ko'payib borayotgani bilan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'sish imkoniyatlari cheklanganligi o'rtasidagi tafovut oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalasining yildan-yilga keskinlashib borayotganining asosiy sababi bo'lib, bu tafovut, avvalo, oziq-ovqat mahsulotlarini jadal ishlab chiqarish uchun tegishli sharoitlar mavjud bo'lmagan mamlakat va hududlarda chuqurlashib bormoqda. Bu esa o'z navbatida aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash, ularning ehtiyojlarini to'liq qondirish, oziq-ovqat mahsulotlarining sifatini yaxshilash masalalarining markazida turadigan oziq-ovqat bozorlarini shakllantirishga zaruratni keltirib chiqaradi.

Oziq-ovqat mahsulotlari bozorini rivojlantirish vositasida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash O'zbekistonning mustaqilligini, mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy barqarorlikni ta'minlashning garovi hisoblanadi. Yer yuzida iqlim o'zgarishining natijasida yuz berayotgan tabiiy ofatlar, yerlarni sug'orish uchun suv tanqisligi, qurg'oqchilik kabi

OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI BOZORINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA MAMLAKAT IQTISODIYOTIDAGI O'RNI

Daminova O'g'iloy Mirzaqul qizi

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti Menejment kafedrası

1-kurs tayanch doktoranti

daminovaogiloy@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7440025>

ABSTRACT

Ushbu maqolada oziq-ovqat mahsulotlari bozorining nazariy asoslari, uning o'ziga xos xususiyatlari, oziq-ovqat mahsulotlari bozori sub'ektlari va ob'ektlari hamda uning mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari bozorini rivojlantirish vositasida mamlakat oziq-ovqat xavfsizligiga erishish va aholi turmush farovonligini oshirish borasida fikrlar keltirilgan.

vaziyatlar oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishni qiyinlashtirmoqda. Oqibatda dunyo oziq-ovqat bozorlarida narx-navo ko'tarilib bormoqda. Masalan, oziq-ovqat mahsulotlarining jahon bozoridagi o'rtacha narxlari 2022 yil mart oyida 2021 yilning shu davriga nisbatan 34 foizga oshdi. Yil boshidan bug'doy narxi 20 foiz, makkajo'xori 19 foiz, ozuqa donlari 20 foiz va o'simlik yog'i 23 foizga ko'tarildi. Mamlakatimizda ham ayrim mahsulotlarning narxi sezilarli ravishda oshib ketish holatlari kuzatildi.¹

Bunday sharoitda ichki bozorda narx-navo barqarorligini ta'minlashning iqtisodiy chorasi oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish va ishlab chiqarishni ko'paytirishdir.

Aholi turmush farovonligi va sifatini oshirish, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'laonli ta'minlash masalalari oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash muammosi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bois ham yurtimizda mustaqilligimizning dastlabki yillaridan boshlab oziq-ovqat mahsulotlari bozorini shakllantirish va bu orqali oziq-

¹ <https://pravacheloveka.uz/uz>



ovqat xavfsizligiga erishish masalalari ijtimoiy-iqtisodiy siyosatimizning eng markaziy o'rinlarida bo'lib kelgan.

So'nggi yillarda ham davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev rahbarligida ushbu muhim masalaga ustuvor ahamiyat qaratib kelinadi. Sohaga oid qator huquqiy hujjatlar qabul qilinib, ular asosida muayyan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Sohada amalga oshirilayotgan ishlar natijasida O'zbekistonning oziq-ovqat xavfsizligi global indeksi reytingidagi o'rnini ko'tarilib bormoqda. Ushbu reytingda 113 mamlakatda oziq-ovqatning mavjudligi, sifati va xavfsizligi, shuningdek, tabiiy resurslar va barqarorlik masalalari hisobga olingan. Tahlil natijalariga ko'ra, mazkur indeksning 2019 yildan 2022 yilgacha bo'lgan umumiy reytingida O'zbekiston 12 pog'onaga ko'tarilib, shu yilda 113 ta o'rindan 73-o'ringa loyiq topildi. Shu tariqa mamlakatimiz 2019-2022 yillarda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda jadal rivojlanishga erishgan 10 ta davlat orasida birinchi o'rinni egalladi.

Mamlakatda u rivojlangan bo'ladimi, yoki rivojlanayotgan bo'ladimi, oziq-ovqat bozorini shakllantirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, milliy iqtisodiyot rivojlanishiga, aholini ijtimoiy himoya qilish muammolarini hal etishga, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Yangi iqtisodiy sharoitlarda oziq-ovqat mahsulotlari bozorining rivojlanish qonuniyatlarini asoslash, uning mohiyati, vazifalari, tarkibiy elementlarini va oziq-ovqat mahsulotlari bozorini tartibga solish mexanizmlari, uning roli va ijtimoiy bozor iqtisodiyotidagi o'rnini aniq tushunishni talab qiladi.

Oziq-ovqat bozori, eng avvalo, mintaqalararo iqtisodiy aloqalarda qatnashishni ta'minlovchi qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoatining mavjudligiga asoslanadi. Shu sababli agrar sohada olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarni kengaytirishga, oziq-ovqat mahsulotlari

ishlab chiqarishni ko'paytirishga, ularning assortimetri va sifati yaxshilash masalalariga respublikamizda ustuvorlik berilmoqda. Bu esa o'z navbatida, mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlanish darajasining yuqori ko'rsatkichiga olib keladi.

Oziq-ovqat xavfsizligi mamlakat aholisini asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan o'zini o'zi, mustaqil ta'minlashga qodirligini ifodalaydi. Shuningdek, oziq-ovqat importiga o'ta bog'liqlikdan xalos bo'lganligini anglatadi. Davlatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash borasidagi siyosatida, asosan, o'zining qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi va ichki sotish bozorlarini rivojlantirishga, qisman, chet ellardan oziq-ovqat mahsulotlarini import qilish asosida aholini oziq-ovqatga bo'lgan maqbul darajadagi ehtiyojini qondirish ko'zda tutiladi.

Oziq-ovqat bozorini qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish tarmoqlari, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan tarmoqlar majmui va mustaqil tizim sifatida mintaqada oziq-ovqat mahsulotlarini taqsimlash funksiyasini bajaradigan tarmoqlar majmuini o'z ichiga olgan agrosanoat majmuasining bir qismi sifatida belgilash mumkin.

Oziq-ovqat mahsulotlari bozori - mavjud resurslardan foydalangan holda iste'molchilarni oziq-ovqat mahsulotlariga, qishloq xo'jaligida qayta ishlash korxonalarini esa xom ashyoga bo'lgan ehtiyojlarini qondiradigan, sotuvchilar va xaridorlarning o'zaro munosabatlarini, narx darajasini, talab va taklif nisbatini, aholining turli ijtimoiy guruhlari o'rtasidagi oziq-ovqat mahsulotlarini taqsimlashni belgilaydigan, shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, muomalaga chiqarish va sotish jarayonida rivojlanadigan iqtisodiy munosabatlardir.²

² Кураласва А.А. Региональные особенности формирования и функционирования продовольственного рынка: автореф.дис. на соиск. учен. степ. канд. эконом. наук (08.00.05)/ Нальчик-2011г.



Oziq-ovqat mahsulotlari bozori mamlakat iqtisodiyotida bir qator muhim funksiyalarni bajaradi:

- oziq-ovqat mahsulotlarini iste'molchilarga yetkazish uchun sharoit yaratadi;
- oldi-sotdi operatsiyalari orqali sotuvchilar va xaridorlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni ta'minlaydi;
- oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, taqsimlashda miqdoriy nisbatlarni, talab va taklif tarkibini belgilaydi;
- muvozanat narxlari darajasini va turli xil oziq-ovqat mahsulotlari narxlari o'rtasidagi nisbatni belgilaydi;
- bevosita va bilvosita aloqa orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar uchun "ko'rsatkich" vazifasini bajaradi.

Oziq-ovqat bozorining o'ziga xos xususiyati shundaki, unda hayot uchun birinchi o'rinda zarur bo'lgan mahsulotlar - hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari sotiladi. Shuning uchun oziq-ovqat bozori nafaqat iqtisodiy, ijtimoiy, balki siyosiy manfaatlar doirasiga kiradi. Ya'ni, oziq-ovqat bozori boshqa bozorlardan unda sotiladigan tovarlarning umumiyliги bilan sifat jihatidan ajralib turadi, ular bir-birini almashtiruvchi oziq-ovqat mahsulotlari guruhlariga birlashtiriladi, ya'ni: don, un, non, makaron mahsulotlari; meva va sabzavot mahsulotlari; qandolat mahsulotlari; maza beruvchi mahsulotlar; go'sht va go'sht mahsulotlari; baliq va baliq mahsulotlari; sut va sut mahsulotlari; oziq-ovqat yog'lari; tuxum va tuxum mahsulotlari.

Sanab o'tilgan tovarlar guruhlari tegishli mahsulot bozorlarining asosini tashkil qiladi, ular o'rtasida oziq-ovqat uchun aholi va ma'lum iste'mol o'rnini bosuvchi yagona samarali talab orqali bilvosita bog'liqlik mavjud.

Agrosanoat ishlab chiqarish tarmog'ining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, oziq-ovqat

mahsulotlari bozorining quyidagi bir qator xususiyatlari ham farqlanadi:

- oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ob-havo omiliga sezilarli bog'liqligi, bu oziq-ovqat ishlab chiqarish hajmini ishonchli prognoz qilish imkoniyatini qiyinlashtiradi va sifat nazorati imkoniyatlarini cheklaydi;
- ko'p turdagi oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda yillar davomida mavsumiylik va notekislik sharoitida aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan barqaror talabi, bu esa mintaqa aholisini barqaror ta'minlash uchun zaxira oziq-ovqat fondlarini yaratishni taqozo etadi;
- umumiy ishlab chiqarish hajmida tez buziladigan oziq-ovqat mahsulotlarning yuqori ulushga egaligi, bu yetarli darajada saqlab beruvchi va qisqa vaqt ichida bu turdagi oziq-ovqat mahsulotlarini realizatsiya qilinishini ta'minlaydigan infratuzilmani yaratish zaruratini keltirib chiqaradi.

Bularning barchasi oziq-ovqat mahsulotlari bozorini rivojlantirish tendensiyalari va muammolarini tahlil qilish zarurati va dolzarbligini tasdiqlaydi.

Oziq-ovqat mahsulotlari bozori tovar-pul ayirboshlash munosabatlari tizimi sifatida ob'ektlarga egalik qilish, ulardan foydalanish va sotish bo'yicha bir-biri bilan iqtisodiy munosabatlarga kirishuvchi sub'ektlardan iborat bo'ladi.

Oziq-ovqat mahsulotlari bozorining sub'ektlari:

1) uy xo'jaligi - inson kapitalini ishlab chiqarish va takror ishlab chiqarishni (sog'lik, tarbiya, ta'lim haqida g'amxo'rlik qilishni) ta'minlaydigan bir yoki bir nechta shaxslardan iborat iqtisodiy birlik; mustaqil ravishda qarorlar qabul qiladi; ehtiyojlarini maksimal darajada qondirishga intiladi; har qanday ishlab chiqarish omilining egasi bo'lishi mumkin;

2) korxonalar - ishlab chiqarish omillaridan mahsulot ishlab chiqarish uchun ularni realizatsiya qilish maqsadida foydalanadigan iqtisodiy birlik; maksimal



foйда olishga intiladi; mustaqil ravishda qaror qabul qiladi. Oziq-ovqat bozorining sub'ektlari iqtisodiyotning agrar sektori korxonalari, oziq-ovqat sanoati korxonalari, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlash, saqlash, qayta ishlash tizimi korxonalari, xomashyo, tijorat tuzilmalari, ulgurji va chakana savdo, qishloq xo'jaligi birjalari va boshqalar bo'lishi mumkin;

3) davlat - umumiy maqsadlarga erishishda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va bozor ustidan nazoratni ta'minlash uchun huquqiy va siyosiy hokimiyatni amalga oshiruvchi hukumat institutlari.

Har qanday bozorning o'ziga xos xususiyatlari birinchi navbatda unda sotiladigan tovarlar turi, ya'ni bozor ob'ektlari bilan aniqlanadi. Oziq-ovqat mahsulotlari bozorining ob'ektlari qishloq xo'jaligi xom ashyosi va ularni qayta ishlash mahsulotlari hisoblanadi.

Oziq-ovqat mahsuloti - insonning hayotiy energiyaga, shuningdek, uning organizmini normal ishlashini ta'minlash uchun zarur bo'lgan almashtirib bo'lmaydigan moddalarga bo'lgan fiziologik ehtiyojini qondirishni ta'minlaydigan mahsulotlar hisoblanadi.

Bozor ishtirokchilari unda sotuvchi va xaridorlar sifatida harakat qilishadi, aslida, ular bir-biriga va umuman jamiyatga nisbatan ma'lum huquq va majburiyatlarga ega bo'lgan bozor sheriklari hisoblanadi. Ular bir-biri bilan turli shakldagi munosabatlarga kirishadilar, ularning maqsadi sotuvchi uchun tovarlarni sotish va foyda olish bo'lsa, xaridor uchun esa mahsulotni sotib olish va mos keladigan ehtiyojini qondirish hisoblanadi. Sotuvchining maksimal foyda olish istagi va xaridorning tovar uchun minimal narx to'lashga tayyorligi, mahsulot narxini talab va taklif qonuni orqali muvozanatlashuviga olib keladi.

Bugungi kunda dunyoning bir qator mamlakatlarida aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash birinchi darajadagi muammoga aylanib bormoqda. BMTning ma'lumotlariga ko'ra dunyoda

yetarli miqdorda oziq-ovqat mahsulotlari mavjud bo'lgan bir paytda qariyb 1 mlrd. kishi ochlikda yashamoqda. Jahonda aholini oziq-ovqat bilan taminlash bo'yicha yuzaga kelgan bunday sharoitda mamlakatimizda ushbu muammoni ijobiy hal qilish maqsadida, bir qator tizimli ishlar amalga oshirilmogda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Respublika oziq-ovqat sanoatini jadal rivojlantirish hamda aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'laonli ta'minlashga doir chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2020 yil 9 sentabrdagi 821-sonli qarori ijrosi bo'yicha mamlakatimizda meva-sabzavot, go'sht, sut va boshqa qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarini xalqaro sifat standartlari asosida qayta ishlash hajmlarini oshirish, ichki hamda tashqi bozorlarda raqobatbardosh bo'lgan mahalliy oziq-ovqat mahsulotlari turlarini ishlab chiqarishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini joriy etish hamda aholini sifatli va xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashni yanada yaxshilash maqsadida bir qator ishlar amalga oshirilmogda.

Islohotlar natijasida respublikada parranda go'shti, tuxum, baliq, guruch mahsulotlari bilan ta'minlash darajasi ancha yaxshilandi.

Misol uchun, so'nggi 3 yilda:

- baliq yetishtirishni Andijon 4 ming tonnadan 25 ming tonnaga, Buxoro 3,5 ming tonnadan 23 ming tonnaga oshirgan;

- parranda go'shtini Samarqand 22 ming tonnadan 100 ming tonnaga, Toshkent viloyati 31 ming tonnadan 90 ming tonnaga yetkazgan;

- tuxum ishlab chiqarishni Sirdaryo 127 million donadan 200 million donaga, Namangan 480 million donadan 700 million donaga, Farg'ona 350 million donadan 600 million donaga ko'paytirib, to'liq o'zini-o'zi ta'minlayapti.

Ta'kidlash joizki, ichki bozorni oziq-ovqat bilan to'ldirish, ularni ishlab chiqarish sohasida o'z-o'zini ta'minlashga



erishish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash O'zbekiston iqtisodiyotining muhim sektori hisoblangan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Chunki O'zbekistonda qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning yetakchi tarmog'i sanaladi. Shu jihatdan O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan unumli, samarali foydalanishni ta'minlashga qaratilgan qonunchilikni yanada mustahkamlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ulushining yuqori bo'lishiga erishish zarur.

O'zbekistonda aholining oziq-ovqat hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarni to'la qondirish, oziq-ovqat bozorida barqarorlikni ta'minlash yo'lida faoliyat yuritadigan muhim tarmoq – agrar sohasida islohotlarni yanada chuqurlashtirish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda.

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash oziq-ovqat mahsulotlari yetkazilishida ichki bozorni zarur mahsulotlar bilan to'ldirish va tashqi bozorlarda raqobatbardoshlik salohiyatini ro'yobga chiqarish imkonini beradi va o'z navbatida aholining ovqatlanish ratsionida xilma-xillikni ta'minlaydi.

Aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini to'la qondirish, bozorlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxlarining barqarorligini ta'minlash – bugungi kunning eng muhim talabi. Zero, oziq-ovqat mahsulotlarining arzon va yetarliligi xalq

roziligining asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, oziq-ovqat mahsulotlari bozori iqtisodiy makonning bir shakli sifatida bir-biri bilan, shuningdek, tashqi muhit bilan o'zaro aloqada bo'lishi mumkin bo'lgan ichki ierarxiyaga ega bo'lgan xususiyatlar majmuasining mavjudligi bilan tavsiflanadi va uni o'rganishga tizimli yondashuvni talab qiladi. Oziq-ovqat mahsulotlari bozori murakkab tuzilma bo'lganligi sababli, tabiiyki, uning shakllanish mexanizmi ham o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Oziq-ovqat mahsulotlari bozori har qanday mamlakatning sanoat bozorlari tizimidagi markaziy o'rinlardan birini egallaydi. Oziq-ovqat bozorini rivojlantirish strategiyasi ikki yo'nalishli vazifani hal qilishi kerak: bir tomondan, qishloq aholisi uchun yuqori turmush darajasini va qulay yashash muhitini ta'minlash, boshqa tomondan oziq-ovqat xavfsizligiga erishish.

Yuqoridagi tadqiqotlar oziq-ovqat bozorining rivojlanishini o'rganish va prognozlash muammosining dolzarbligi va muhimligini isbotlaydi. Bozorning rivojlanish holati o'z navbatida, bir tomondan, uning rivojlanish qonuniyatlarini bilish, iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha davlat siyosatini ishlab chiqish, ijtimoiy o'zgarishlarni amalga oshirish, bozor ustidan nazorat qilish va unga ta'sir o'tkazish, boshqa tomondan esa, mamlakatda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va uni qo'llab-quvvatlashni nazarda tutadi.